

BORSAKELMAS DAVLAT BUYURTMA QO'RIQXONASI QUSHLARI FAUNASI

**Turdibaev Q.P., Ametov Ya.I., Nurimov B.J.,
Ayimbetova Sh.J., Alpisbaeva A.J., Bekniyazova I.B.**

*Berdaq nomidagi Qoraqalpog' davlat universiteti, O'zbekiston,
qturdibaev@mail.ru, raf_78@inbox.ru*

Annotation. *The article describes the results of ornithological studies conducted in 2022 in the Barsakelmes State Nature Reserve. The authors provided information on the species composition of birds, the nature of their stay and rare species.*

Alohida ekologik qimmatga ega bo'lgan tabiiy ob'ektlar va majmualarni, o'simliklar, hayvonlarning noyob turlari hamda genetik fondini saqlab qolish, shuningdek, ularni qayta tiklash, inson faoliyatining tabiatga salbiy ta'sirining oldini olish va tabiiy jarayonlarni o'rganish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 27 sentabrdagi 530-sonli qarori bilan Borsakelmas davlat buyurtma qo'riqxonasi tashkil etilgan.

Borsakelmas davlat buyurtma qo'riqxonasi Ustyurt tekisligining markaziy qismida Borsakelmas botig'ining g'arbiy tomonida joylashgan. Buyurtma qo'riqxonasining havo harorati Ustyurtning markaziy qismi singari. Qoraqalpog'iston gidrometeorologik stantsiyasi bergan ma'lumotlari bo'yicha o'rtacha havo harorati 2022 yilda 11,8°C, o'rtacha yillik yog'ingarchilik miqdori 59,9-261 mm ga teng.

Buyurtma qo'riqxonaning suv resurslari yog'ingarchiliklar, shuningdek, yer osti suvlarining tepaga ko'tarilishidan hosil bo'lgan "Gurkirewik" ko'li hisobidan ta'minlanadi. Ko'l biologik xilma-xillik jumladan, qushlar uchun katta ahamiyatga ega. Ko'l qushlarga migratsiya davrida dam olish va oziqlanish o'rni sifatida xizmat qilishi bilan birga chumchuqsimonlarning uyalash joyi ham hisoblanadi.

Ilmiy tadqiqot ishi 2022 yilning barcha mavsumlarida Borsakelmas davlat buyurtma qo'riqxonasi hududida olib borildi. Qushlar faunasini tadqiq etishda umumqabul qilingan usullardan foydalanildi [2, 5]. Marshrutli va nuqtali metodlar yordamida qushlar ro'yxatga olindi. Qushlarni kuzatish Baigish 15x50 binokli va Coolpix p1000 fotokamerasi yordamida amalga oshirildi. Sanoq o'tkazish nuqtalarida kuzatish uzoqligi 10-30 daqiqagacha davom etdi.

Hozirga vaqtga qadar Borsakelmas davlat buyurtma qo'riqxonasi hududida kompleksli ornitologik tadqiqotlar olib borilmagan. Ayrim adabiyot ma'lumotlarida buyurtma qo'riqxonaning qushlari bo'yicha qisqa-qisqa ma'lumotlar keltirilgan [1, 3, 4]. Biz olib borgan tadqiqotlarimiz davrida Borsakelmas davlat buyurtma qo'riqxonasi hududida 10 turkum 40 oilaga mansub qushlarning 83 turi (kenja turlar bilan birga) ro'yxatga olindi (jadval).

Jadval

Borsakelmas davlat buyurtma qo'riqxonasi qushlarining sistematik tarkibi va kelib-ketish maqomi


Turkum	Turlar soni		O'troq		Uyalovchi		Uchib o'tuvchi		Qishlovchi	
	abc.	%	abc	%	abc	%	abc.	%	abc.	%
Anseriformes	1	1,2					1	1,2		
Falconiformes	12	14,5	2	2,4	5	6,0	4	4,8	4	4,8
Gruiformes	2	2,4			1	1,2	1	1,2		
Charadriiformes	2	2,4			2	2,4				
Columbiformes	3	3,6	1	1,2	2	2,4			1	1,2
Cuculiformes	1	1,2			1	1,2				
Strigiformes	2	2,4	2	2,4						
Coraciiformes	2	2,4					2	2,4		
Upupiformes	1	1,2			1	1,2		0,0		
Passeriformes	57	68,7	3	3,6	15	18,1	32	38,6	8	9,6
Jami	83	100	8	9,6	27	32,5	40	48,2	13	15,7

Izoh: Kelib ketish maqomi bo'yicha guruhlangan turlarning umumiy soni Borsakelmas davlat buyurtma qo'riqxonasi qushlar faunasidagi turlar soniga nisbatan ko'p. Sababi ko'pchilik uyalovchi turlarning shimoliy populyatsiyalari uchib-o'tuvchi va qishlovchi ham hisoblanadi.

Jadval ma'lumotlari bo'yicha turkumlar orasida eng keng tarqalgani *Passeriformes* turkumi – 57 tur yoki 68,7 % tashkil qildi. Undan keyingi o'rinni *Falconiformes* turkumi (12 tur yoki 14,5 %), *Columbiformes* turkumi (3 tur

yoki 3,6 %), *Gruiformes*, *Charadriiformes* va *Stigiformes* turkumlari har biri (2 tur yoki 2.4 %), *Anseriformes*, *Cuculiformes* va *Upupiformes* turkumlari har biri 1 turdan (yoki 1.31 %) to'g'ri keldi.

Qushlarni kelib ketish maqomi bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak uchib o'tuvchilar 40 tur (48,2 %), uyalovchilar 27 tur (32,5 %), qishlovchilar 13 tur (15,7 %) va o'troq holda yashovchilar 8 turni (9,6 %) tashkil qildi (1-rasm).



Rasm. Borsakelmas davlat buyurtma qo'riqxonasi qushlarining kelib ketish maqomi bo'yicha ko'rsatkichi

Tadqiqot davomida ro'yxatga olingan qushlardan dasht bo'ktargisi-*Circus macrourus*, ilonxo'r burgut-*Circaetus gallicus*, cho'l burguti-*Aquila nipalensis*, burgut-*Aquila chrysaetos*, dasht miqqiysi-*Falco naumanni* va yo'rg'a tuvaloq-*Chlamydotis macqueenii* O'zbekiston Respublikasining Qizil kitobiga va Tabiatni muhofaza qilish Xalqaro ittifoqining (TMXI) «Qizil ro'yxati» ga kiritilgan.

Buyurtma qo'riqxonada tarqalgan qushlar faunasini bioekologik tadqiq qilish kelajakda ularni muhofaza qilishning optimal yo'llarini ishlab chiqishga xizmat qiladi deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Костин В.П. Заметки по орнитофауне левобережья Амударьи и Устюрта // Труды Ин-та зоол. и паразитол. АН УзССР. - Ташкент, 1956. Вып. 8. - С. 79-127.
2. Новиков Г.А. Полевые исследования по экологии наземных позвоночных. - Москва, 1953. - 501 с.
3. Рустамов Э. А. Экспедиция на Устюрт в 1989 г. // Казахстанский орнитологический бюллетень. - Алматы, 2003. - С. 223-227.
4. Matekova G.A., Turdibaev K., Ametova N.I., Ametov Ya.I., Jumanov M.A. Ecological features of the ornitofauna of the karakalpak part of the Usturt Plateau // International Journal of Entomology Research. - Vol. 7, Issue 12, 2022, - P. 25-28.
5. William J. Sutherland. Ecological Census Techniques: A Handbook, Cambridge University Press, 2006. - 432 p.
6. Yusupovich, R. A. (2022). ECOLOGICAL-FAUNIST ANALYSIS OF COXINALLIDES (COLEOPTERA, COCCINELLIDAE) OF THE KARSHI OAKH. *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*, 4, 331-335.
7. Saidmuratov S., Bobonazarov G., Nigmatullaev B. TO IMPROVE AND ANALYZE THE TEACHING METHODOLOGY OF "HIGH PLANTS MODULE" IN BOTANY FOR FUTURE BIOLOGISTS // SPAST Abstracts. - 2023. - T. 2. - №. 02.
8. Hamzayeva N., Bobonazarov G., Jumanazarov A. SIRTUIN AND NUTRITIONAL HORMESIS. - 2020.
9. Qizi N. Z. B. QASHQDARYO HUDUDIDA TARQALGAN ORTHETRUM NEWMAN, 1833 AVLODIGA MANSUB NINACHILAR TAKSANOMIYASI VA MORFOBIOLOGIYASI // In The World Of Science and Education. - 2024. - №. 20 сентябрь БН. - С. 18-20.
10. Исакова, С. А., Дыйканбаева, Г. Ш., & Остащенко, А. Н. (2023). РАЗНЫЕ КЛАССЫ ГЕЛЬМИНТОВ ГРЫЗУНОВ (RODENTIA) ИЗ ИССЫК-КУЛЬСКОЙ КОТЛОВИНЫ. Исследование живой природы Кыргызстана, (1), 99-102.
11. Хосилова Г. и Исмаилова Г. (2021). ПОЛОЖИТЕЛЬНОЕ И НЕГАТИВНОЕ ЗНАЧЕНИЕ МОЛЛЮСКОВ В БАЛАНС ПРИРОДЫ. Научный прогресс, 2 (5), 397-400.
12. Qizi, N. Z. B. (2024). PROSPECTS FOR THE FUTURE STUDY OF THE ODONATA ORDER: A REVIEW OF PUBLISHED ARTICLES FROM THE SCOPUS DATABASE 2019-2023. *European science review*, (3-4), 13-22.